

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA TANQIDIY FIKRLASHNING
SAMARADORLIGI

Toshkent amaliy fanlar universiteti Pedagogika fakulteti

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”

kafedrası v/b dotsenti **Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna**

2-kurs talabasi: **Turdipo'latova Shaxzoda**

Annotatsiya: Ta'lim sifati jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalining rivojlanishida eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiy, ilmiy va texnologik o'zgarishlar kuchayib borayotgan bir paytda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar ham oshib bormoqda. Shuning uchun ta'limning mazmuni, shakli va usullarini yangilash, o'qitish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mustaqil ishlash ko'nikmalar, pedagoglar, ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, bilim, ko'nikma, onlayn platformalar, 4K modeli, kreativlik, kompetentlik, pedagogik-psixologik omil.

Аннотация: Качество образования является одним из важнейших факторов развития общества и человеческого капитала. В условиях современной глобализации экономические, научно-технические изменения усиливаются, а требования к системе образования также возрастают. Поэтому вопросы обновления содержания, формы и методов обучения, организации образовательного процесса на основе современных технологий и всестороннего развития личности учащегося приобретают неотложное значение.

Ключевые слова: навыки самостоятельной работы, учителя, образовательные технологии, интерактивные методы, знания, умения, онлайн-платформы, модель 4K, креативность, компетентность, педагогико-психологический фактор.

Abstract: The quality of education is one of the most important factors in the development of society and human capital. In today's globalization process, economic, scientific and technological changes are intensifying, while the demands placed on the education system are also increasing. Therefore, the issues of updating the content, form and methods of education, organizing the educational process on the basis of modern technologies, and comprehensive development of the student's personality are of urgent importance.

Keywords: independent work skills, teachers, educational technologies, interactive methods, knowledge, skills, online platforms, 4K model, creativity, competence, pedagogical and psychological factor.

Ta'lim sifati jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalining rivojlanishida eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv jarayonida iqtisodiy, ilmiy va texnologik

o'zgarishlar kuchayib borayotgan bir paytda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar ham oshib bormoqda. Shuning uchun ta'limning mazmuni, shakli va usullarini yangilash, o'qitish jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifati deganda o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning davlat ta'lim standartlari, jamiyat ehtiyojlariga mosligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, ta'lim sifati nafaqat bilim darajasini, balki insonning hayotda mustaqil harakat qila olishi, fikrlashi, muammoni hal etishi va ijtimoiy faol bo'lish qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri o'qituvchining kasbiy omillaridan biri o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi hisoblanadi. O'qituvchi nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi, balki pedagogika, psixologiya va zamonaviy metodlarni mukammal bilish zarur. Yaxshi o'qituvchi darsni faqat axborot berish jarayoni sifatida emas, balki o'quvchini fikrlashga undovchi, izlanishga yo'naltiruvchi, ijodiy faoliyatga chorlovchi muhim omil sifatida quradi. O'qituvchi metodik mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi, motivatsiyasi va natijasi ham shunchalik kuchli bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchining o'z ustida tinimsiz ishlashi, malaka oshirishi, zamonaviy o'qitish texnologiyalardan foydalanishi ta'lim sifatining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri o'quv dasturlarining mazmunidir. O'quv dasturlari ortiqcha nazariy ma'lumotlardan xoli bo'lishi, amaliyotga yo'naltirilgan, hayotiy ehtiyojlarga mos bo'lishi lozim. Dasturlar izchil, tushunarli, yoshga mos, zamonaviy bilimlar bilan boyitilgan bo'lishi zarur. Umumiy o'rta ta'lim bosqichida fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay olsagina, bunday bilim sifatli hisoblanadi.

Ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi ham sifatni belgilovchi muhim omillardan biridir. Maktablarda laboratoriyalar, kompyuter xonalari, elektron doskalar, yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy darsliklar va elektron resurslar bo'lishi kerak. Texnik imkoniyatlar qancha ko'p bo'lsa, o'quvchilarning ilmiy-amaliy ko'nikmalari shunchalik rivojlanadi. Raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, interaktiv platformalardan foydalanish darslarni jonlantiradi, o'quvchilarning faolligini oshiradi, mavzularni osonroq anglashga yordam beradi. Bugungi kunda dunyodagi yetakchi ta'lim tizimlari aynan texnik bazani kengaytirish orqali sifatini oshirmoqda.

Psixologik muhit ham ta'lim sifatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O'quvchi o'zini erkin his qiladigan, fikrini bimalol ayta oladigan, xatodan qo'rqmaydigan muhitda o'qiydigan bo'lsa, uning o'rganish jarayoni tezroq kechadi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni rag'batlantirish, motivatsiyasini doimiy qo'llab-quvvatlash, jamoada sog'lom psixologik iqlim yaratish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Streets, qo'rquv, bosim bo'lgan joyda ta'lim sifati pasayadi, chunki bunday muhitda o'quvchi fikrlay olmaydi va faollashmaydi.

Ta'lim sifatiga oila va jamiyatning ta'siri ham juda katta. Ota-onaning bolaning o'qishiga bo'lgan munosabati, u bilan muloqoti, kitob o'qishga undashi, uyda tinch muhit yaratishi-bularning barchasi o'quvchining intellektual va ruhiy rivojiga bevosita ta'sir

qiladi. Ota-onalar tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi bo'lsa o'quvchi o'qishga yanada mas'uliyat bilan yondashadi. Jamiyatda ta'limga beriladigan e'tibor, madaniy muhit, mutaxassislarini qadrlash darajasi, ilmga hurmatning mavjudligi ham ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar sirasiga kiradi. Rivojlangan davlatlarda jamiyatning ta'limga bo'lgan yuksak e'tibori ta'lim sifatining doimiy o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar alohida o'rin tutadi. STEAM yondashuvi, loyihaviy o'qitish, tadqiqotga asoslangan o'rganish, raqamli platformalar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, interfaol metodlar ta'lim sifatini oshiradi. Bunday usullar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchi, yaratuvchi, izlanuvchi shaxsga aylantiradi. Ichki motivatsiya kuchayadi, o'quvchi bilimni o'zi izlab topadi, o'z fikrini himoya qiladi, muammoni tahlil qiladi. Ta'lim sifati aynan mana shu jarayonlarda shakllanadi.

Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash tizimi ham muhim o'rin tutadi. Baholash adolatli, aniq, tushunarli va shaffof bo'lishi kerak. O'quvchini qo'rqituvchi emas, rivojlantiruvchi baholash tizimi qo'llanilganda o'quvchilar bilimni egallashga ongli ravishda intiladilar. Ulkan ahamiyatga ega bo'lgan milliy va xalqaro baholash tizimi-PISA, TIMSS, PIRLS kabi dasturlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi global miqyosda solishtiriladi, mavjud kamchiliklar aniqlanadi va islohlari rejalashtiriladi. Bunday monitoring ta'lim sifatini doimiy oshirish uchun zarur bo'lgan tahliliy asosni yaratadi.

Yuqoridagi barcha omillar ta'lim sifatining shakllanishiga o'zaro bog'liq holda ishlaydi. O'qituvchi kompetensiyasi, o'quv dasturi, texnik baza, psixologik muhit, innovatsiyalar, oila va jamiyatning yordami-bularning barchasi uyg'un bo'lgandagina ta'lim yuqori sifatga ega bo'ladi. Ta'lim sifati oshsa, jamiyatning ilmiy salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlar, madaniy darajasi, inson kapitali ham rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. Yo'ldoshev J. Usmonov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent: “O'qituvchi”, 2019.
3. Hasanboyeva O. Pedagogika fanining asoslari. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
4. G'aybullayev A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: “Ilm ziyo”, 2020.
5. Mahmudova R. Xolmirzayeva D. Maktab pedagogikasi va psixologiyasi. - Toshkent, 2022.
6. OECD. “PISA International Assessment Reports.” - 2018, 2022.
7. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya - Moskva, 2019.